

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI
GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Geologiya fanlari universiteti
rektori



_____ **M.U. Isoqov**

2024 y. “03” UHOH_____

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI”
DAVLAT MUASSASASI
USTAVI

Toshkent – 2024 yil.

1. Umumiy qoidalar

Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi Geologiya fanlari universiteti tarkibidagi “Mineral resurslar instituti” davlat muassasasining maqomi, maqsadi, vazifa va funksiyalarini, hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

1.1. “Mineral resurslar instituti” Davlat muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4740-sonli Qaroriga muvofiq “Mineral resurslar instituti” Davlat korxonasi negizida qayta tashkil etilgan va Geologiya fanlari universiteti tarkibida faoliyat yuritadi.

Geologiya fanlari universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet) “Mineral resurslar instituti” Davlat muassasasining (keyingi o‘rinlarda Institut) yagona muassasi hisoblanadi.

Institut “Mineral resurslar instituti” davlat korxonasining huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. Institut Universitet tarkibidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘liq yoki qisman moliyaviy ta‘minlab turiladigan, moliyaviy jihatdan ta‘minlanadigan notijorat tashkilot shaklidagi davlat muassasasi hisoblanadi. Institut o‘zining alohida mulkiga, mustaqil balansiga, bank hisob raqamiga, shu jumladan valyuta hisob raqamiga, shtampi va blankiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va davlat tilidagi muassasa nomi ko‘rsatilgan yumaloq muhriga ega.

1.3. Institut tarkibiga ilmiy-tadqiqot ishlarining ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat olib boruvchi markazlar, bo‘limlar, sektorlar, laboratoriyalar, ilmiy loyihalarni amalga oshiruvchi guruhlar, yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar va uchastkalar kiradi.

1.4. Institutning rasmiy to‘liq nomlanishi:

davlat tili, kirill alifbosida – “Минерал ресурслар институти” Давлат муассасаси, qisqartirilgan nomi – МРИ;

davlat tili, lotin alifbosida – “Mineral resurslar instituti” Davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi: – MRI;

rus tilida – Государственное учреждение “Институт минеральных ресурсов”, qisqartirilgan nomi – ИМП;

ingliz tilida – State Establishment «Institute of Mineral Resources» (IMR).

1.5. Institut o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, hamda boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Kon-geologiya vazirligi)ning Hay‘at qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari, Universitet buyruqlari, hamda ushbu Ustaviga amal qiladi.

1.6. Institut operativ boshqarish huquqi asosida alohida mulkga ega bo'lib, o'z nomidan qonunlarda belgilangan tartibda, mulkiy va xususiy nomulkiy huquqlar olib ular bo'yicha majburiyatlarni amalga oshiradi, sudda da'vogar va javobgar bo'lib qatnasha oladi.

1.7. Institut joylashgan manzili: 100164, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 64-uy.

2. Institutning maqsad va vazifalari, hamda faoliyat turlari

2.1. Institutning faoliyatidan maqsad, mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish yo'lida foydali qazilmalarga istiqbolli maydonlarni ilmiy jihatdan asoslangan holda ajratish keng qamrovli ilmiy-tadqiqot, mavzuviy va tajriba-uslubiy ishlar o'tkazish, ma'danlar, minerallar va tog' jinslarini moddiy tarkibini tahlil qilish, foydali qazilmalarni boyitishning maqbul sxemalarini ishlab chiqish bo'yicha laboratoriya, texnologik va yarim sanoat yo'sinidagi tadqiqotlar (sinovlar) o'tkazishdan iborat.

2.2. Institutning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kon-geologiya vazirligi va Universitet tomonidan respublika mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish bo'yicha yillik, o'rta va uzoq muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish va shakllantirishda o'zining vakolati doirasida qatnashish;

- respublika mineral xomashyo bazasining potensialini kuchaytirish maqsadida ilg'or va zamonaviy metodlar va texnologiyalarga asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, geologiya-qidiruv ishlari olib borish uchun istiqbolli maydonlarni aniqlash;

- foydali qazilmalarning yangi turlarini aniqlash, ularni geologik o'rganish va sanoatda o'zlashtirishning zamonaviy usullari, innovatsion va raqamli texnologiyalarni ilgari surish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;

- qattiq foydali qazilma konlarini bashoratlash, izlash, baholash va qidiruv usullarini takomillashtirish, olinayotgan geologik axborotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini oshirish maqsadida kosmosdan yerni masofadan zondlash, bashoratli-metallogenik, geokimyoviy, geofizik tadqiqotlarni o'tkazish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish;

- bashoratlashning ilg'or usullaridan foydalanib, chuqur tahlil asosida, geologiya qidiruv ishlarini olib borish uchun yangi istiqbolli maydonlar ajratish va asoslash, hamda ularni mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlari doirasida amalga oshirish;

- geologik qidiruv ishlarining regional tadqiqot va izlash bosqichlarida yerni masofadan zondlash va GAT-texnologiyalarini qo'llash;

- tematik (shu jumladan 1:50 000, 1:200 000 mashtabli Davlat geologik xaritalarini ham) va geologik mazmunidagi maxsus 1:2000, 1:5 000, 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000, 1:1 000 000, 1:2 500 000 miqyosidagi xaritalarni tuzishda yerni masofadan zondlash ishlarini keng qo'llash;

- geologik, strukturaviy, geokimyoviy, tektonik, bashoratlovchi va boshqa xaritalar uchun raqamli asos tayyorlash, geologik mavzudagi xaritalarni raqamlashtirish va GAT-asosli xaritalar yaratish;

- muntazam tahlillar asosida GQIning muayyan ob'ektlari bo'yicha Kon-geologiya vazirligi tizimosti korxonalarini tomonidan baholangan bashorat ob'ektlarining ishonchliligi va haqqoniyligi haqida ob'yektiv xulosalar chiqarish;

- foydali qazilma konlarini baholash va qidirish bosqichlarida tog'-kon inshootlari va burg'ilash quduqlarini namunalashning ishonchliligi va haqqoniyligini va foydali qazilma zahiralarni hisoblashning ishonchliligini ta'minlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

- tog' jinslarining siqilish, g'ovaklik, hajmiy og'irlik, suv shimuvchanlik, issiq-sovuqqa chidamlik va boshqa fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

- geomexanik tadqiqotlar olib borish, karer va shaxtalarda tog' jinslariga fizik-mexanik kuchlarning ta'sirini o'rganish, karerlarni loyihalashtirishda tog' jinslariga ta'sir etuvchi bosim va deformatsiya hodisalarini tadqiq qilish, raqamli geomexanik modellar va tog'-kon massivlarini holatini boshqarish rejalarini yaratish, massivning ko'chish, surilish, qulash xavflarga qarshi kurashish chora-tabirlarini ishlab chiqish;

- Kon-geologiya vazirligining loyiha va hisobotlar tuzish bo'yicha tasdiqlangan Instrukтив hujjatlarga asoslangan holda, Kon-geologiya vazirligi tasarrufidagi korxonalar, mahalliy va chet el korxonalarini uchun mineral xomashyo potensialini geologik-iqtisodiy baholashni (GIB), foydali qazilma konlarini yiriklashtirilgan texnik-iqtisodiy hisoblarini (YTIH), dastlabki texnik-iqtisodiy asoslashni (DTIA), texnika-iqtisodiy asoslashni (TIA), umumlashgan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar (UTIH) loyiha ishlarini amalga oshirish;

- yuridik, jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el kompaniyalari bajargan GIB, YTIH, DTIA, TIALarga ekspertiza o'tkazish va retsenziya qilish;

- ma'danli va noma'dan foydali qazilmalarda o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlar va yarim sanoat yo'sinidagi sinovlar asosida foydali qazilmalarni boyitishning yangi usullarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

- yer qanirini geologik o'rganish sohasidagi xalqaro loyihalarni bajarilishida qatnashish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va innovatsiya vazirligining innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan belgilangan yer osti boyliklarini geologik o'rganish va samarali foydalanish sohasidagi ilmiy texnik grant dasturlarni bajarishda ishtirok etish;

- geologik ixtisosliklar bo'yicha Universitet tomonidan ishlab chiqilgan o'quv rejalarini va ta'lim jarayonlari dasturlarini takomillashtirish, shuningdek tarmoq kadrlari malakasini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2.3. Institutning faoliyat sohasi va asosiy vazifalariga muvofiq:

- tematik xaritalarni (shu jumladan 1:50 000, 1:200 000 mashtabli Davlat geologik xaritalarini ham) va geologik mazmunidagi maxsus 1:500, 1:1000, 1:2000, 1:5000, 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000,

1:1 000 000, 1:2 500 000 mashtabli atlaslarni, grafika, raqamli, foto va boshqa shakllarini tuzish va nashrdan chiqarishni amalga oshiradi;

- maxsus geologik mazmundagi geografik axborot tizimlarini barpo qiladi va olib boradi;

- geodeziya va kartografiya ishlarini bajarishga litsenziyalari bo'lgan davlat korxonalaridan 1:500, 1:1000, 1:2000, 1:5000, 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000, 1:1 000 000 mashtabli topografik asoslarni oladi yoki sotib oladi;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tasarrufidagi korxonalar foydalanishi uchun sun'iy yo'ldosh suratlarini qayta ishlash, GAT-dasturlarni yangilash va sotib olish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;

- ilmiy tadqiqot, tajriba-uslubiy, tematik ishlar, geologik-iqtisodiy tadqiqotlar, ma'danlarni laboratoriya va yarim sanoat yo'sinidagi texnologik tadqiqotlari, matbaa va noshirlik ishlarining Universitet va Kon-geologiya vazirligi bilan kelishilgan ustivor yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasi xududidagi qattiq foydali qazilma konlarining xosil bo'lish qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar olib boradi;

- nodir, qora, rangli, noyob metallar va boshqa turdagi foydali qazilma konlarini bashoratlash va ularning bashoratlangan resurslarini baholash hamda geologiya-qidiruv ishlarining kelgusidagi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi;

- foydali qazilma konlarini baholash va qidirish bosqichlarida tog'-kon inshootlari va burg'ilash quduqlarini namunalashning ishonchligi bo'yicha tadqiqot ishlari, foydali qazilma zahiralarni hisoblash ishonchligini oshirish maqsadida ularni takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi;

- geologik modellar, konlarni qazib olish usullari va tizimini zamonaviy dasturiy ta'minotlar bilan qo'llab, tog'-kon investitsion loyihalarni zamonaviy standartlarni hisobga olib iqtisodiy modellarni yaratish, buyurtmachining birlamchi materiallari bo'yicha geologik qidiruv, eksplutatsion, geofizik va geokimyoviy muayyan ma'lumotlar bazasini yaratadi;

- mineral xomashyolardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, foydali qazilmalarni boyitishning kam chiqitli yoki chiqitsiz texnologiyalarini, foydali komponentlarni ajratib olishning biotexnologik usullarini, nodir va noyob-yer elementlarni ajratib olish va shu kabi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni va mavjudlarini takomillashtirishni amalga oshiradi;

- xar xil turdagi tog'-kon ishlarida qo'llaniladigan ehtiyot va butlovchi qismlar, burg'ulash suyuqliklari tayyorlash, yangilarini yaratish bo'yicha tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish va ular asosida turli burg'ilash koronkalari, burg'ilash kolonnalari va boshqa asbob-uskunalarining namunalarni tayyorlash, ishlab chiqarish va sotish;

- Kon-geologiya vazirligi, shuningdek yuridik, jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslarining buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida yer qa'rini geologik o'rganish bo'yicha, foydali qazilma maydonlarida geologiya qidiruv, ilmiy-tadqiqot va mavzuviy ishlari olib borish bo'yicha,

laboratoriya miqyosidagi texnologik va tajriba-uslubiy, hamda yarim sanoat texnologik sharoitlarda foydali qazilmalarni boyitish va foydali metallarni ajratib olish texnologiyalarini yaratish, tog' jinslarining tarkibini o'rganish bo'yicha laboratoriya tahlil ishlari, noshirlik va matbaa ishlarini bajaradi;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining manfaatdor korxonalari va boshqa xo'jalik subyektlari bilan xo'jalik shartnomalari asosida amalga oshiriladigan laboratoriya va tajriba tadqiqotlari va yarim sanoat yo'sinidagi sinovlarning asosiy yo'nalishlarini, hajmlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizim osti korxonalariga va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga shartnoma asosida avtotransport uchastkasidagi mavjud avtotransport vositalari yordamida transport xizmatlarini (yuk tashuvchi, avtobus, yengil avtomashinalar) ko'rsatish;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tashkilotlariga va boshqa xo'jalik subyektlariga avtoransport vositalariga ta'mirlash, tekshirish va servis xizmatlarini ko'rsatish;

- yer qa'rini geologik o'rganish bo'yicha olib boriladigan ishlarni tartibga soluvchi tarmoqlararo va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni vakolati doirasida ishlab chiqadi;

- o'z vakolatlari doirasida, Institut bajaradigan ilmiy-tadqiqot, tajriba-uslubiy va boshqa ishlar natijalari bo'yicha hisobotlarni tasdiqlaydi;

- tarkibi Institut olimlari va yuqori malakali mutaxassislaridan iborat Ilmiy kengash tuzadi va ushbu kengash ilmiy-tadqiqot, tajriba-uslubiy, tematik va boshqa ishlar yo'nalishlarini belgilaydi; loyiha-smeta hujjatlarini, bajarilgan ishlar natijalari bo'yicha hisobotlarni va institutning asosiy faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqadi. Ilmiy kengash haqidagi qoidalar Institut direktori tomonidan tasdiqlanadi;

- tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik orqali yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashni amalga oshiradi;

- geologiya tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha, shu sohadagi ilg'or tajribalardan foydalangan holda, muntazam ravishda ish olib boradi, shuningdek Kon-geologiya vazirligi, Universitet, boshqa respublika oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha takliflar kiritadi;

- o'z vakolatlari doirasida yer qa'ridan foydalanish huquqini yuzaga keltiruvchi, shartnoma asosida uni geologik o'rganishga asos bo'luvchi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlaydi;

- strukturaviy bo'linmalarda ishlab chiqarishning xavfsiz sharoitlarini, yong'in xavfsizligi qoidalarini, sanitariya va ekologik me'yorlarini, dala tadqiqot ishlari o'tkazishning me'yorlari va qoidalarini bajarilishini ta'minlaydi;

- ishonib topshirilgan mulkni saqlanishini va undan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

- davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni, maxfiylik rejimini saqlashni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi; tijorat sirlarni tashkil qiluvchi ma'lumotlar tarkibini, hajmini va himoyasini belgilaydi;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradi.

3. Institut mulki

3.1. Institut ilmiy va rahbar xodimlari oylik maoshi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagi “Ilmiy xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 233-sonli qarori, asosida va Universitet Ustavida ko‘rsatilgan bazaviy lavozim maoshi miqdoriga muvofiq belgilanadi.

3.2. Institut injener-texnik va ishchi xodimlar oyilik maoshlari Kon-geologiya vazirligi tizimida mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi.

3.3. Institut xodimiga lavozim maoshi (stavka) o‘z funktsional vazifalarini hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to‘lanadi. Qo‘shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag‘batlantirish tadbirlarining hajmini institutning xo‘jalik shartnomalaridan hosil bo‘lgan foyda hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

3.4. Institut mulki davlat tasarrufida bo‘lib, u bo‘linmasdir va hissalariga (ulushlarga, paylarga), shu jumladan Institut xizmatchilari o‘rtasida, taqsimlanishi mumkin emas. Bu mulkka Institut xo‘jalik yuritish huquqi asosida egalik qiladi va mustaqil balansida ifoda etadi.

3.5. Institut mulkining shakllanish manbalari quyidagilardir:

- Universitet tomonidan Institut ixtiyoriga xo‘jalik yuritish xuquqi asosida topshirilgan mol-mulk;

- byudjetdan yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash dasturi doirasida ajratiladigan maqsadli mablag‘lar, dotatsiyalar;

- Institutga xo‘jalik shartnomalari asosida bajarilgan ishlardan olingan daromadlar;

- qarz mablag‘lari, shu jumladan banklar va boshqa kredit beruvchi tashkilotlarning kreditlari;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar. Korxonalar mulkining qiymati Institutning mustaqil balansida aks ettiriladi.

3.6. Ko‘char va ko‘chmas mulkni Institut qonunchilikda belgilangan tartibda, faqat maqsadlari, predmeti va turlari ushbu Ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qilmaydigan doirada tasarruf etadi.

3.7. Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va to‘ldirish yillik davlat dasturlari doirasida Kon-geologiya vazirligi bilan tuzilgan shartnoma asosida kelib tushgan byudjet mablag‘lari, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish vazirligi tomonidan ajratilgan grant mablag‘lari, xo‘jalik faoliyatidan tushumlar, xalqaro tashkilotlar grantlari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar institutning moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

3.8. Quyidagi hollarda Institut mulkini tasarruf etish, Institut tomonidan Universitet bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga berish;
- mulkni ulush sifatida xo'jalik jamiyatining ustav fondiga kiritish;
- xo'jalik jamiyatlarining aksiyalarini (hissalarini) sotib olish;
- xo'jalik jamiyatlarining Institutga tegishli aksiyalarini (hissalarini) sotish;
- Institut faoliyatining maqsadlariga mos kelmaydigan mulk tasarruf etishning boshqa ko'rinishlari.

3.9. Institut, yer va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilishni va foydalanishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradi.

4. Institutning huquq va majburiyatlari

4.1. Institut o'z faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda Universitet roziligi bilan Institutning strukturaviy bo'linmalarini tuzadi, qayta tashkil qiladi va tarqatib yuboradi;
- Universitet roziligi bilan, amaldagi qonunchilik bo'yicha yuridik shaxslarning ishtirok etishi ruxsat etilgan tijorat va notijorat tashkilotlarning ishtirokchisi (a'zosi) bo'lishi mumkin;
- zarurat tug'ilganda, Kon-geologiya vazirligining yoki Universitetning o'ta muhim (yoki yirik) topshiriqlarini bajarish uchun sohaning (shu jumladan Institutning), hamda boshqa turdosh tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilgan xolda muvaqqat ishchi guruhlarini (mehnat jamoalarini) tuzishi mumkin;
- belgilangan tartibda Universitet bilan kelishgan holda, o'zaro maqbul tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish va rivojlantirish;
- o'rnatilgan tartibda xalqaro hamkorliklarni amalga oshirish, olimlar va mutaxassislarni chet davlatlarga xizmat safariga yuborish, chet el olimlarini, xalqaro ijtimoiy, moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarning vakillarini, soha bo'yicha chet el firmalari va kompaniyalarining vakillarini taklif qilish va qabul qilish;
- asosiy ilmiy yo'nalishi bo'yicha ilmiy va ilmiy-texnikaviy konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar, shu jumladan xalqaro tadbirlar o'tkazish loyixasini tuzadi va amalga oshiradi;
- dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar tuzishga taklif kiritadi va ularning ish faoliyatini ta'minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ushbu Ustavga, shuningdek Institut faoliyatining maqsad va faoliyatiga zid bo'lmagan barcha turdagi shartnomalar tuzishi mumkin;
- shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, olingan foydani Institut xodimlarini moddiy rag'batlantirishga, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga sarflash;
- mukofotlash va ustama haq to'lash haqidagi tasdiqlangan Nizomga muvofiq xodimlarni mukofotlaydi va ularning oylik maoshlariga ustama haqlar belgilaydi;
- jahon andozalariga teng keladigan, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun kerak bo'ladigan zamonaviy dasturiy qo'llanmalar, asbob-uskunalar va texnologiyalar ta'minotini amalga oshirish;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va Universitet roziligi bilan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishi va ular bilan operatsiyalar olib borishi;

- kapital ta'mirlashni (shu jumladan o'z kuchi bilan) amalga oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurish, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va aholiga pullik xizmat ko'rsatish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish.

4.2. Institutning majburiyatlari:

- belgilangan tartib va muddatlarda moliya, statistik, tezkor, buxgalteriya hisobotlarini tegishli va nazorat organlariga hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va Unisersitet talabi bo'yicha, boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi;

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga va Universitetga geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnika, uskunalar, apparatura va asosiy texnologik materiallarni sotib olish bo'yicha takliflar kiritadi;

- yosh mutaxassislarning malakalari va bilimlarini oshirish uchun lozim bulgan sharoitlarni yaratib berish va Institut ilmiy potentsialining o'sishiga yordam berish;

- mulk vositalari va mehnat resurslaridan samarali foydalanish.

5. Institutni boshqarish

5.1. Institut faoliyatiga Universitet rektorining tavsiyasiga ko'ra Kon-geologiya vazirligi tomonidan mehnat shartnomasi asosida lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ilmiy unvonga ega bo'lgan direktor rahbarlik qiladi.

5.2. Direktor lavozimida ishlovchi shaxs mustaqil shtat lavozimida ishlovchi shaxs hisoblanadi va uni o'rindoshlik tartibida egallashga ruxsat etilmaydi.

5.3. Institut direktori o'z faoliyatida Universitet Ustaviga, ushbu Ustavga va qonunchilikda belgilangan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

5.4. Kon-geologiya vazirligi bilan kelishgan holda, Universitet rektorining buyrug'i bilan direktor o'rinbosarlari tayinlaydi. Direktor o'rinbosarlarining vakolatlari Institut direktori tomonidan belgilanadi.

5.5. Institut xodimlari va Institut direktori o'rtasidagi o'zaro mehnat munosabatlari yuzasidan vujudga keladigan holatlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va Universitet jamoa shartnomasi asosida tuzilgan Institut jamoa shartnomasi bilan tartibga solinadi.

6. Institut direktorining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

6.1. Institut direktori quyidagilarni amalga oshiradi:

- Institut direktori o'z faoliyatida mazkur Ustavga, Universitetning Ustaviga va qonunchilikda belgilangan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi;

- institut nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi;

- o'z vakolati doirasida Institut mulkini boshqaradi, shartnomalar tuzadi, shu jumladan mehnat shartnomalarini (jumladan kontrakt asosidagi shartnomalarni), qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;

- banklarda hisob-kitob varaqlarini va boshqa hisob varaqlarini ochadi;

- mablag'larni boshqarish huquqidan foydalanadi;

- Kon-geologiya vazirligi va Universitet bilan kelishgan holda, Institut xizmatchilarining shtatlar sonini va ularning ish haqlari miqdorini tasdiqlaydi;

- buyruqlar chiqaradi;

- Institutning ichki hujjatlarini tasdiqlaydi, Institutning barcha xodimlari bajarishlari shart bo'lgan ko'rsatmalarni beradi;

- o'z xodimlariga kafolatlangan ish sharoitlarini va ijtimoiy himoya choralarini ta'minlaydi, ishlab topilgan mablag'lar doirasida boshqa ijtimoiy imtiyozlar belgilaydi;

- qonunchilik asosida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

6.2. Institut direktori har chorakda Kon-geologiya vazirligi va Universitet hay'at yig'ilishlarida Institut faoliyati haqida hisobot beradi.

6.3. Institut direktori o'z xuquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish chog'ida, Institut manfaatlarini ko'zda tutgan holda harakat qiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagilar uchun javobgardir:

- byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazish;

- ish haqini to'lash;

- mehnat munosabatlari va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha kelib chiqadigan barcha talablarni qondirish;

- ishlab-chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ehtiyojlarga pul mablag'larini o'tkazmaslik;

- ishlab-chiqarishda baxtsiz xodisa tufayli Institut xodimlariga zarar yetkazilishi yoki sog'liqqa boshqa zarar yetkazilishi;

- uning xarakatlari (xarakatsizligi) tufayli Institutga yetkazilgan moddiy zarar, shu jumladan Institutga topshirilgan davlat mulkining yo'qotilish hollari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

7. Institut filiallari va vakolatxonalarini

7.1. Institut Universitet va Kon-geologiya vazirligi bilan kelishilgan holda, alohida yuridik shaxs bo'lmagan, vakolatxonalar, filiallar va boshqa tarkibiy bo'linmalarni ochishi mumkin.

7.2. Vakolatxonalar, filiallar va boshqa ajralgan bo'linmalar Institut tasdiqlagan qoidalar asosida Institut nomidan ish ko'radi.

7.3. Institut filiali va tarkibiy bo'linmasining rahbari, Kon-geologiya vazirligi bilan kelishilgan holda, Institut rahbari tomonidan tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida ish yuritadi. Filial yoki strukturaviy bo'linmaning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilganda, ishonchnoma Institut rahbari tomonidan bekor qilinishi lozim.

7.4. Institut boshqa davlat muassasa tasischisi bo'lishi mumkin emas.

8. Institutning javobgarligi

8.1. Institut o'z majburiyatlari bo'yicha unga qarashli mulk bilan javob beradi. Institut mulki yetishmagan holda, Universitet Institut majburiyatlari bo'yicha subsidiar tarzda javob beradi.

8.2. Institut Kon-geologiya vazirligi majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

8.3. Filiallar va tarkibiy bo'linmalarning majburiyatlari bo'yicha Institut javob beradi.

9. Institut faoliyati ustidan nazorat

9.1. Hisobot davri tugagach, Institut vakolatli organlarga moliyaviy xisobot va ro'yxati qonunchilikda belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi, hamda belgilangan tartibda hujjatlarning saqlanishi va ularni davlat saqloviga topshirilishiga javobgardir.

Institut Kon-geologiya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda va tartibda o'zining asosiy ishlab-chiqarish xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobotini Universitetga va Kon-geologiya vazirligiga taqdim etadi.

9.2. Institutning xo'jalik yurituvchi organ sifatidagi faoliyati ustidan nazorat qilishni Universitet, Kon-geologiya vazirligi va boshqa vakolatli organlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

10. Institutni qayta tashkil etish va tugatish

Institutni qayta tashkil etish (birlashish, ajralish, qaytadan o'zgartirish) va tugatish Kon-geologiya vazirligining qarori bo'yicha, Universitet bilan kelishgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda yoki sud qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Ustavga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish

11.1. Institut Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Universitet rektori bilan kelishgan holda kiritiladi.

11.2. Institut Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va muddatlarda Ustavni ro'yxatga olgan organga taqdim etishi va bu haqda O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organlarini, Universitet va Kon-geologiya vazirligini xabardor qilish orqali amalga oshirilishi shart.

“Mineral resurslar instituti” DM
direktori



I.B. Turamuratov